



2019 yil yanvar oyida Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yil yanvar oyida viloyatdagi korxonalar tomonidan 964,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 113,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 5,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati - 19,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 4,1 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish - 22,5 % ga o'sishi hisoblandi.

Yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 914,2 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,8 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,6 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali - 27,5 % ni, o'rta-quyi texnologiyali - 7,9 % ni va quyi texnologiyali - 64,1 % ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 40,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,2 % ni) tashkil etdi.






Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 498,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yil yanvar oyiga nisbatan 3,0 % ga o'sishini ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 51,7 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sish sur'ati



2018-yil yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida noziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 62,8 % dan 2019-yil yanvar oyida 62,4 % ga kamayishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va piva 1,1 % ni (2018-yil yanvar oyida 1,5 %) tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 443,8 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.



Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 46,0% ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajimdagi ulushi, %.

2018-yil yanvar




2019-yil yanvar



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'pi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 43,0 %), Jomboy (19,5 %), Samarqand (6,4 %), Urgut (5,7 %), Pastdarg'om (4,2 %), Bulung'ur (3,7 %) va Tayloq (3,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'm)




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hisyasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 416,9 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 43,3 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %.







Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulung'ur tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nurobod (100,0), Qo'shrabod (100,0), Samarqand (99,6), Urgut (99,3), Tayloq (84,7) va Oqdaryo (64,6) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Kattaqo'rg'on shahri (27,8 %), Ishtixon (26,2), Jomboy (2,1), tumanlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)

Qayta ishlash sanoati

<i>Sanoat mahsulotlari nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2019-yil yanvar</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
Tarkibida ikkita ta'minlovchi element–azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	 <i>ming tonna</i>	1,0	92,2 ↓
Aroq	 <i>mingl. 100% spirt</i>	30,0	23,4 ↓
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	 <i>ming l. 100% spirt</i>	2,4	19,7 ↓
Uzum vinosi	 <i>ming l.</i>	5,4	11,1 ↓

<i>Sanoat mahsulotlari nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2019-yil yanvar</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)		ming l.	895,0 -
Yumshoq bug'doy va spelta uni		ming tn.	13,6 123,2 ↑
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni(buxanka), og'irligi 600 g.		tn.	58,0 93,5 ↓
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)		tn.	1265,0 308,5 ↑
Paxta tolasi		ming tn.	6,6 71,2 ↓
Paxta chigiti		ming tn. ming tn.	10,2 70,7 ↓
Paxta tiviti (lint)		tn.	520,0 65,7 ↓

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi



mln.kVt/s

2,3

0,0



Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)



ming Gkal.

7,6


128,8



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatda 4880 ta sanoat korxonalari faoliyat kursatmoqda, shundan 1397 tasi (mavjud korxonalar umumiy soning 28,6 %) Samarqand shahriga, 712 tasi (14,6 %) Urgut tumaniga, 352 tasi (7,2 %)-Pastdarg'om tumaniga tug'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 fevral holatiga)



2019-yil yanvar oyida viloyatda 236 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning Samarqand shahri (22,0 foiz), Ishtixon (14,4 foiz) , Tayloq (10.2 foiz), Urgut va Pastdarg'om (8,5 foiz), tumanlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil yanvar)



Sanoat statistikasi bo'limi

E.A.Qo'qonov

Tel: (66) 235-06-80